



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<i>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</i>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<i>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</i>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<i>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
<i>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
<i>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
<i>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</i>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<i>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
<i>Rasulova Umida Bahodir qizi</i>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<i>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<i>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<i>Lukmonova Salomat Gafurovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
<i>Farmonova Madina Bahriddin qizi</i>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
<i>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<i>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</i>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<i>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</i>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
<i>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<i>Axmad Bolqiyev</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине "Практикум литературы народов СНГ".....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
Umarkulov Muhtorali Islomkulovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
Xakimov Xurshid Nozimovich	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
Siddiqova Sanobar Xaydarovna	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
Tangirov A. J.	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI VA METODIK ASOSLARI

Axmad Bolqiyev

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik ahamiyati, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarining tahlili yoritilgan. Samarali metodik yondashuvlar umumlashtirilib, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni shakllantirishning zamonaviy usullari hamda zarur pedagogik shart-sharoitlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, boshlang'ich ta'lim, ma'naviy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, metodika, integratsiya, tarbiya modeli.

Abstract: The theoretical and methodological foundations of educating primary school students in the spirit of national values, as well as its pedagogical significance, are examined. A critical review of studies conducted by local and foreign scholars is provided. Effective methodological approaches are systematized, and modern methods of fostering national values in the educational process, along with the necessary pedagogical conditions, are scientifically substantiated.

Key words: national values, primary education, moral education, pedagogical technologies, methodology, integration, educational model.

Аннотация: Рассматриваются теоретико-методологические основы воспитания учащихся начальных классов в духе национальных ценностей, а также его педагогическое значение. Представлен анализ исследований отечественных и зарубежных ученых. Систематизированы эффективные методические подходы, научно обоснованы современные способы формирования национальных ценностей в образовательном процессе и необходимые педагогические условия.

Ключевые слова: национальные ценности, начальное образование, нравственное воспитание, педагогические технологии, методика, интеграция, модель воспитания.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar shaxsining ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi.

Milliy qadriyatlar – jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, axloqiy me'yorlari va madaniy merosini o'zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Pedagogik nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar quyidagilarni ta'minlaydi:

- shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini;
- ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirishni;
- milliy identifikatsiyani shakllantirishni.



Shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi – bu insonda yaxshilik va yomonlikni farqlash qobiliyati, jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga amal qilish, vijdon, mas'uliyat, halollik kabi sifatlarning rivojlanishi, o'z xatti-harakatlarini baholay olish va nazorat qilish kabi jihatlarning bosqichma-bosqich shakllanishidir. Ya'ni, bu jarayon shaxsning nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, ongli va jamiyatga foydali inson bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy rivojlanish tarbiyaviy ishlar (suhbatlar, tushuntirishlar), milliy qadriyatlarni o'rgatish, o'qituvchi shaxsiy namunasining ta'siri, jamoa ichida faoliyat, ya'ni guruh ishlari va ijtimoiy muhitlar orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinfda bu jarayon ayniqsa muhim, chunki bolalarda asosiy axloqiy tushunchalar aynan shu davrda shakllanadi. Milliy qadriyatlar shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishining asosiy manbalaridan biridir. Ular orqali kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar bolalar ongiga singdiriladi. Natijada o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, ijtimoiy mas'uliyat, mustaqil fikrlash va ma'naviy barqarorlik kabi sifatlar shakllanadi.

Demak, "shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash" – tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lib, u insonni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayonning to'g'ri tashkil etilishi kelajak avlod sifatini belgilab beradi.

Shuningdek, bu jarayon bolalarda ijtimoiylashuvni tezlashtiradi. Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyatga moslashishi, undagi ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayonidir. Milliy qadriyatlar orqali bola jamiyat hayotiga tezroq va samaraliroq kirib boradi. Milliy qadriyatlar bolaga tayyor "ijtimoiy model"ni taqdim etadi. Bular:

- qanday gapirish (odob-axloq);
- qanday muomala qilish (hurmat, mehr);
- qanday harakat qilish (odob qoidalari).

Masalan:

- kattalarga salom berish;
- navbat kutish;
- mehmondorchilik odoblari.

Bular bola uchun jamiyatda qanday yashash kerakligini o'rgatuvchi amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Demak, milliy qadriyatlar ijtimoiylashuvni "tezlashtiradi", chunki ular bolaga jamiyat qoidalarini tayyor holda beradi va uni ijtimoiy hayotga tezroq moslashtiradi.

Milliy identifikatsiya – bu shaxsning o'zini ma'lum bir millatga mansub deb bilishi, o'z xalqining madaniyati, tili va qadriyatlarini qabul qilishi jarayonidir. Avvalo, bolalarda quyidagi tushunchalar paydo bo'lishi nazarda tutiladi: "Men kimman?", "Qaysi xalq vakiliman?" va "Mening madaniy ildizlarim nima?" kabi savollar. Bu jarayon milliy ertaklar va hikoyalar, urf-odatlar va bayramlar (Navro'z, hayitlar), milliy kiyimlar va san'at kabi vositalar orqali amalga oshadi. Milliy identifikatsiya – bu shaxsning "o'z ildizini tanishi"dir. Agar bu jarayon boshlang'ich ta'limda to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bola kelajakda mustahkam ma'naviy asosga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur muammo ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan. O'zbekistonlik pedagog olimlar milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni shaxs kamolotining muhim omili sifatida baholaydilar.

J.A. Jovliyev milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini asosiy pedagogik tamoyil sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, faqat milliy qadriyatlar emas, balki global qadriyatlar bilan uyg'unlashgan tarbiya samaraliroq bo'ladi.

Z. Ismailova tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning rolini ochib beradi va milliy qadriyatlarni shakllantirishda interfaol metodlarning ahamiyatini asoslaydi.

O'. Tolipov va D. Ro'ziyeva pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

N. Muslimov kasbiy pedagogik kompetensiyalar tizimida milliy qadriyatlarni muhim komponent sifatida ko'rsatadi.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda "cultural identity", "values education" tushunchalari keng qo'llaniladi.

G'arb pedagogikasida qadriyatlar tarbiyasi ko'proq demokratiya, tolerantlik va shaxs erkinligi bilan bog'lanadi. Sharq pedagogikasida esa an'ana, hurmat va jamiyat manfaatlari ustuvor hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili asosida milliy qadriyatlar tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga oid ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida yig'ildi. Ma'lumotlarni olishda pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, suhbat va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda o'quvchilar ishtirokida anketalar o'tkazilib, ularning milliy qadriyatlarga munosabati, bilim darajasi va tarbiyaviy jarayondagi ishtiroki aniqlashtirildi. Shuningdek, dars jarayonlari bevosita kuzatilib, milliy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlarning amaliy qo'llanilishi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, natijalar taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish orqali baholandi. Statistik tahlil elementlari qo'llanilib, tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Shu asosda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash samaradorligi, qo'llanilgan metodlarning ta'sir darajasi hamda pedagogik shart-sharoitlarning natijalarga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinfda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, axloqiy tarbiya rivojlanadi, ya'ni halollik, hurmat, mehr-oqibat, mas'uliyat kabi fazilatlar o'quvchilar ongida izchil shakllanadi. Shu bilan birga, milliy ongning shakllanishi kuzatiladi – o'quvchi o'z millatiga mansubligini anglaydi, milliy qadriyatlarni qadrlashga o'rganadi hamda o'z madaniy ildizlariga nisbatan hurmat hissi kuchayadi. Natijada ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi, ya'ni muloqot madaniyati, jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifoda etish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bularning barchasi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularining mustahkamlanishiga olib keladi, ular o'z yurtiga sadoqatli, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida tarbiya samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bog'liqdir. Jumladan, o'qituvchining yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyaga ega bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ota-ona va maktab hamkorligining yo'lga qo'yilishi, o'quvchilarga ijobiy ma'naviy muhit yaratib berilishi, tarbiyaviy ishlarning tizimli ravishda tashkil etilishi ham muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni o'qitish jarayonida ularni amaliy faoliyat bilan bog'lash, ya'ni turli tadbirlar, sahna ko'rinishlari, milliy bayramlar va ijodiy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ma'naviy-axloqiy yetukligini ham oshirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik kabi muhim sifatlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili hamda nazariy qarashlar asosida milliy qadriyatlar tarbiyasini samarali tashkil etish tizimli yondashuvni, innovatsion metodlardan foydalanishni va o'qituvchining yuqori pedagogik mahoratini talab etishi aniqlandi. Shu bois, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni chuqur singdirish orqali barkamol, ma'naviy yetuk, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mumkin.

Taklif sifatida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq: boshlang'ich ta'lim dasturlariga milliy qadriyatlar mazmunini yanada chuqur integratsiya qilish, o'qituvchilarning ushbu yo'nalishdagi malakasini oshirish, ota-ona va maktab hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, milliy qadriyatlarni o'rgatishda interfaol va innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur. Shuningdek, o'quvchilarni milliy madaniyat va an'analar bilan bevosita tanishtiruvchi amaliy faoliyatlarni kengaytirish, ularni turli tarbiyaviy tadbirlarga faol jalb etish ham yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jovliyev J.A. Tarbiya nazariyasi. – T., 2018.
2. Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T., 2003.
3. Tolipov O., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2019.
4. Bolqiyev A.B. Boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar metodikasi. – T., 2020.
5. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik asoslari. – T., 2015.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
7. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.